

Date: 3rd April-2026

MAMLAKATIMIZ HUDUDLARIDA MARKETING MUHITI VA
TADBIRKORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISHI

Karimov Shahbozxo‘ja Xamdjon o‘g‘li
o‘qituvchi, Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz hududlarida marketing muhiti va tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish holati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, hududiy iqtisodiyotda marketing infratuzilmasining shakllanishi, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta‘sir etuvchi omillar hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi o‘rganiladi. Shuningdek, marketing muhitini takomillashtirish orqali tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari aniqlanadi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the development of the marketing environment and entrepreneurial activity across the regions of our country. In particular, the study examines the formation of marketing infrastructure in regional economies, the factors affecting the activities of entrepreneurial entities, and their interrelationships. Furthermore, the priority directions for developing entrepreneurship through improving the marketing environment are identified, and practical recommendations are proposed. The results of the research contribute to accelerating regional economic development and enhancing competitiveness.

Аннотация. В данной статье представлен научный анализ развития маркетинговой среды и предпринимательской деятельности в регионах нашей страны. В частности, исследуется формирование маркетинговой инфраструктуры в региональной экономике, факторы, влияющие на деятельность субъектов предпринимательства, и их взаимосвязи. Кроме того, определяются приоритетные направления развития предпринимательства через совершенствование маркетинговой среды и разрабатываются практические рекомендации. Результаты исследования способствуют ускорению регионального экономического развития и повышению конкурентоспособности.

Kalit so‘zlar: marketing muhiti, tadbirkorlik faoliyati, hududiy rivojlanish, biznes muhiti, iqtisodiy o‘shish, raqobatbardoshlik, infratuzilma, investitsiya muhiti

Keywords: marketing environment, entrepreneurial activity, regional development, business environment, economic growth, competitiveness, infrastructure, investment climate

Ключевые слова: маркетинговая среда, предпринимательская деятельность, региональное развитие, деловая среда, экономический рост, конкурентоспособность, инфраструктура, инвестиционный климат

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda hududiy rivojlanish darajasi ko‘p jihatdan marketing muhitining shakllanganligi va tadbirkorlik faoliyatining faolligi bilan belgilanadi. O‘zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida hududlarda biznes



Date: 3rd April-2026



yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, marketing infratuzilmasini rivojlantirish hamda tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, hududlar kesimida marketing muhitining notekis rivojlanganligi, axborot ta‘minoti, logistika tizimi va bozor mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi tadbirkorlik faoliyatining samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Mazkur holatni chuqur tahlil qilish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirish orqali hududiy marketing muhitini takomillashtirish hamda tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot hududiy iqtisodiyotda marketing muhitining o‘rni va ahamiyatini aniqlash, mavjud muammolarni baholash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishga yo‘naltirilgan.

Ma‘lumki, hozirgi kunda mamlakatimizda iqtisodiy faol aholining katta qismi, ya‘ni 80 foizdan ortig‘i xususiy tadbirkorlik sektorida band bo‘lib, ushbu soha milliy iqtisodiyotning muhim tayanch omillaridan biriga aylangan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlik darajasining oshib borishi, ayniqsa, kam ta‘minlangan aholi qatlamlari daromadlarini barqarorlashtirish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishda muhim rol o‘ynamoqda. Shu bilan birga, yangi tashkil etilayotgan kichik biznes sub‘yektlarining barqaror rivojlanishini ta‘minlash maqsadida mamlakatimizda qulay biznes muhiti shakllantirilmoqda. Xususan, yagona soliq to‘lovlari stavkalarining optimallashtirilishi, ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlantirilishi, tadbirkorlarning moliyaviy va moddiy resurslarga kirish imkoniyatlarining soddalashtirilishi kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, yirik sanoat korxonalarini bilan kichik biznes sub‘yektlari o‘rtasida kooperatsion aloqalarning rivojlanishi ham iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Natijada, kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi sezilarli darajada ortib, u nafaqat ichki bozorni to‘ldirish, balki eksport salohiyatini kengaytirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik sub‘yektlarini qo‘llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo‘yicha qabul qilingan qaror va farmonlari ijrosi natijasida 2018-2023 yillarning yanvar-dekabr oylari davomida jami 510,1 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangidan tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati sohalar kesimida tahlil qilinganda, ularning asosiy qismi savdo va xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlariga to‘g‘ri kelayotgani kuzatiladi. Jumladan, eng yuqori ulush savdo sohasiga tegishli bo‘lib, ushbu yo‘nalishda 189,5 mingta korxonalar (37,1 %) tashkil etilgan. Shuningdek, xizmatlar sohasi 123,4 mingta (24,2 %), sanoat sohasi 99,0 mingta (19,4 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 61,1 mingta (12,0 %) hamda qurilish sohasi 37,1 mingta (7,3 %) bilan ifodalanadi. Mazkur ko‘rsatkichlar kichik biznes sub‘yektlarining ko‘proq tez aylanma va kam kapital talab qiluvchi sohalarda faoliyat yuritishga intilayotganini ko‘rsatadi.

Date: 3rd April-2026

Umuman olganda, faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami soni 417,1 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich mamlakat iqtisodiyotida kichik tadbirkorlikning muhim o'rin egallayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, har 1000 aholiga to'g'ri keladigan kichik tadbirkorlik sub'yektlari soni 14,0 birlikni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,9 birlikka kamaygani kuzatilmoqda. Bu holat tadbirkorlik faoliyatining hududlar kesimida notekis rivojlanayotgani yoki ayrim institutsional va iqtisodiy to'siqlar mavjudligini anglatishi mumkin.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, faol kichik korxonalar va mikrofirmalar soni bo'yicha yetakchi o'rin yana savdo sohasiga tegishli bo'lib, unda 33 470 ta sub'yekt faoliyat yuritmoqda. Keyingi o'rinlarda sanoat sohasi (14 101 ta), boshqa xizmatlar (9 921 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (9 388 ta) hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari (5 955 ta) qayd etilgan. Ushbu tuzilma kichik biznesning iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish va savdo faoliyatiga ko'proq yo'naltirilganini, sanoat va yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan sohalarda esa ulushni yanada oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Respublikaning tuman va shaharlar kesimida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2023-yilda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni bo'yicha yetakchi hududlar asosan yirik shahar infratuzilmasiga ega bo'lgan hududlarga to'g'ri keladi. Xususan, eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek tumanida (2 016 ta), Chilonzor tumanida (1 899 ta), Yunusobod tumanida (1 877 ta), shuningdek, Samarqand shahrida (1 782 ta), Yashnobod tumanida (1 566 ta), Olmazor tumanida (1 510 ta) va Mirobod tumanida (1 447 ta) qayd etilgan. Ushbu natijalar mazkur hududlarda biznes yuritish uchun qulay infratuzilma, yuqori iste'mol bozori sig'imi va rivojlangan xizmatlar tarmog'i mavjudligi bilan izohlanadi.

Aksincha, kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilishi ko'rsatkichlari ayrim hududlarda, jumladan Shirin shahrida (38 ta) va Xonobod shahrida (44 ta) nisbatan past darajada qolmoqda. Bu esa mazkur hududlarda iqtisodiy faollik, investitsiya muhiti va infratuzilma rivojlanish darajasining yetarli emasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik sub'yektlariga yaratilayotgan imtiyoz va preferensiyalar natijasida ushbu yo'nalishda yangi korxonalar soni sezilarli darajada oshmoqda. Xususan, umumiy ovqatlanishni tashkil etish, avtomobil transporti xizmatlari va ta'lim sohaslarida ko'plab kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati yo'lga qo'yilmoqda.

Sanoat sohasida esa, asosan, qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hamda mebel ishlab chiqarish yo'nalishlarida kichik biznes sub'yektlari faoliyati kengayib bormoqda. Qurilish sohasida esa yangi tashkil etilayotgan korxonalar asosan turar joy qurilishi, qurilish loyihalash ishlari hamda turli qurilish-montaj xizmatlari bilan bog'liq faoliyat turlariga yo'naltirilgan.

Umuman olganda, hududlar kesimida kichik biznes sub'yektlarining rivojlanish dinamikasi iqtisodiy infratuzilma, investitsion jozibadorlik va bozor imkoniyatlari bilan



Date: 3rd April-2026

chambarchas bog‘liq bo‘lib, ushbu omillarni muvozanatli rivojlantirish hududlararo tafovutlarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik sub’yektlarini yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari” tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi [1].

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste‘molchilarga - yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga - ma‘lum vaqt oralig‘ida taqdim etilgan xizmatlarning umumiy qiymatini ifodalaydi va xizmatlar sektorining iqtisodiyotdagi ulushini baholashda muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Mazkur ko‘rsatkich xizmatlar bozorining rivojlanish darajasi, uning hajmi va iqtisodiy faollikdagi o‘rnini aniqlash imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznes sub’yektlarining ulushi sezilarli bo‘lib, u 47,7 foizni tashkil etadi. Shundan 21,5 foizi bevosita kichik tadbirkorlik sub’yektlari va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu holat kichik biznesning xizmatlar sohasida muhim o‘rin egallayotganini hamda iqtisodiyotning ushbu segmentida yetakchi drayverlardan biri sifatida namoyon bo‘layotganini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibida kichik tadbirkorlik sub’yektlarining ulushi 51,2 foizni tashkil etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2022-yilning mos davriga nisbatan 0,4 foiz punktga kamaygan. Ushbu pasayish kichik biznes faoliyatining ayrim tarmoqlarda sekinlashuvi yoki yirik korxonalar ulushining nisbatan ortishi bilan izohlanishi mumkin. Shu bilan birga, mazkur ko‘rsatkichning 50 foizdan yuqori darajada saqlanib qolayotgani kichik tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi hamda uni yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish zaruratini ko‘rsatadi.

Mazkur ko‘rsatkichning pasayishi, avvalo, yirik tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan yaratilayotgan qo‘shilgan qiymat hajmining sezilarli darajada ortishi bilan izohlanadi. Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida yirik sanoat va xizmat ko‘rsatish korxonalarining faoliyati kengayib borishi natijasida ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlar hajmi oshib, yalpi ichki mahsulot tarkibida ularning ulushi ortib bormoqda.

Natijada, kichik biznes sub’yektlari faoliyati mutlaq hajm jihatidan o‘sisda davom etayotgan bo‘lsa-da, umumiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar, xususan YaIM tarkibidagi ulushi nisbatan kamayish tendensiyasini namoyon etmoqda. Bu esa iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar yuz berayotganini, ya’ni yirik ishlab chiqarish va kapital sig‘imi yuqori bo‘lgan tarmoqlarning ustuvorligi ortib borayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, mazkur holat kichik tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash, ularning yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi sohalarda ishtirokini kengaytirish hamda innovatsion faoliyatga jalb etish zarurligini ko‘rsatadi. Bu orqali kichik



Date: 3rd April-2026

biznesning iqtisodiyotdagi nisbiy ulushini barqaror saqlash va uni yanada oshirish imkoniyati yaratiladi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi iqtisodiy faoliyat turlari kesimida sezilarli darajada farqlanishi kuzatiladi, bu esa tarmoqlar kesimida ularning ishtirok darajasi va iqtisodiy rolining turlicha ekanligini anglatadi. Xususan, eng yuqori ulush qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida qayd etilib, 95,6 foizni tashkil etadi. Mazkur holat ushbu sohada asosan kichik ishlab chiqaruvchilar, fermer va dehqon xo'jaliklari ustun mavqega ega ekanligi, hamda ishlab chiqarish jarayonining nisbatan kam kapital talab qiluvchi xususiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, qurilish sohasida ham kichik tadbirkorlik sub'yektlarining ulushi yuqori bo'lib, 77,0 foizni tashkil etadi. Bu esa qurilish xizmatlari, kichik pudrat tashkilotlari va individual loyihalar asosida faoliyat yurituvchi sub'yektlarning mazkur tarmoqda keng ishtirok etayotganini ko'rsatadi. Xizmatlar sohasida esa kichik biznesning ulushi 40,4 foiz darajasida shakllangan bo'lib, bu tarmoqda ham kichik korxonalar muhim o'rin egallayotganini bildiradi, biroq yirik xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar ulushining mavjudligi sababli ulush nisbatan muvozanatlashgan [3].

Aksincha, sanoat sohasida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining ulushi nisbatan past - 21,4 foizni tashkil etadi. Bu holat, avvalo, sanoat tarmog'ida yirik ishlab chiqarish korxonalarining ustunligi, yuqori kapital talab qilinishi hamda texnologik murakkablik darajasi bilan izohlanadi. Shu nuqtai nazardan, kichik biznes sub'yektlarining sanoat va yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi sohalardagi ishtirokini kengaytirish, ularni innovatsion va texnologik jihatdan qo'llab-quvvatlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, mazkur ko'rsatkichlar kichik tadbirkorlik sub'yektlarining iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida yetakchi o'rin egallashini ko'rsatadi, xususan, qishloq xo'jaligi va qurilish sohalarda ularning roli sezilarli darajada yuqori. Shu bilan birga, sanoat va yuqori texnologiyali sohalarda kichik biznesning ulushini oshirish maqsadida qo'shimcha rag'batlantiruvchi mexanizmlarni ishlab chiqish va joriy etish zarurati mavjudligi ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu esa kichik tadbirkorlik sub'yektlarini innovatsion faoliyatga kengroq jalb qilish, ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish va milliy iqtisodiyotdagi ro'lini mustahkamlash imkonini beradi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar, ishlar va xizmatlar eksporti hajmi 2023-yilda 7,1 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilib, mamlakatning umumiy eksport hajmining 29,0 foizini qamrab oldi. Bu ko'rsatkich kichik biznesning nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro bozorlarda ham muhim rol o'ynashini, iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishga va eksport salohiyatini kengaytirishga sezilarli hissa qo'shishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, raqobatni rivojlantirish, xususiy mulkni himoya qilish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor islohotlarini chuqurlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan tizimli chora-tadbirlar kichik tadbirkorlik sub'yektlarining eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning innovatsion salohiyatini oshirish va yangi bozor segmentlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Natijada, kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi o'ri



Date: 3rd April-2026

mustahkamlanib, ularning global iqtisodiy jarayonlarga integratsiyalashuvi hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli oshmoqda. Shu asosda, kichik tadbirkorlik sub'yektlarini eksport faoliyatida rag'batlantirish, ularning moliyaviy va tashkiliy resurslariga qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda bozor sharoitlariga moslashtirilgan strategiyalarni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning jahon iqtisodiy hamjamiyatiga samarali integratsiyalashishi va global iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etishi borasida kichik biznesning o'rni beqiyos ahamiyatga ega. Ko'plab xalqaro va milliy iqtisodiy tahlilchilar, shuningdek tadqiqotchilar XXI asr iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotning dinamik rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlamogdalar. Ularning fikricha, kichik biznes nafaqat ichki iqtisodiy jarayonlarda innovatsion va moslashuvchan bo'lib, bozor munosabatlariga o'tish sharoitida iqtisodiyotning tayanch sektorlaridan biriga aylanadi, balki milliy ishlab chiqarishning samaradorligi va resurslarni oqilona taqsimlashga ham sezilarli hissa qo'shadi. Shu bilan birga, kichik tadbirkorlik sub'yektlarining faoliyati nafaqat yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sish sur'atlariga ijobiy ta'sir qiladi, balki aholi farovonligini oshirish va ish bilan bandlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Kichik biznesning jadal rivojlanishi orqali yangi ish o'rinlari yaratilib, mahalliy iqtisodiy salohiyat oshadi, investitsion muhit yaxshilanadi va hududlararo iqtisodiy tafovutlar kamayadi. Shu sababli, davlat siyosati doirasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ular uchun qulay huquqiy, moliyaviy va tashkiliy sharoitlarni yaratish, shuningdek innovatsion va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan strategiyalarni ilgari surish milliy iqtisodiyotning barqaror va uzluksiz rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Umuman olganda, mamlakatimiz hududlarida marketing muhiti va tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi iqtisodiy salohiyatning oshishi, ish bilan bandlikni ta'minlash va hududlararo farqlarni kamaytirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik va o'rta biznes sub'yektlarining faoliyati savdo, xizmatlar, qurilish va sanoat sohalarida barqaror o'sishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, hududiy o'ziga xoslik va mahalliy resurslar asosida yaratilayotgan marketing strategiyalari tadbirkorlik sub'yektlariga raqobatbardosh mahsulotlar va xizmatlar taklif etish imkonini beradi, bu esa umumiy iqtisodiy muhitni yanada optimallashtirishga yordam beradi.

Shuningdek, marketing muhitini yaxshilash va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun davlat tomonidan yaratilayotgan qonuniy, moliyaviy va tashkiliy mexanizmlar samarali natija bermoqda. Kichik va mikrofirmalarning faol ishtiroki hamda hududlarda xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining ehtiyojlarini qondirishda, eksport salohiyatini oshirishda va iqtisodiy diversifikatsiyaga erishishda muhim rol o'ynamoqda. Shu bois, hududiy marketing strategiyalarini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha kompleks choralar mamlakat iqtisodiyotining barqaror va uzluksiz rivojlanishini ta'minlashda asosiy vosita sifatida qaraladi.



Date: 3rd April-2026

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 11.05.2021 yildagi PQ-5113-son, <https://lex.uz/docs/-5421233>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2017-yil 19-iyun, PF-5087-son, <https://lex.uz/acts/-3238384>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari. 2023 yil yanvar-dekabr, dastlabki ma’lumotlar, Toshkent-2024.

